



## XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr

VII-27-235-9-0-K/25

Sirdaryo viloyati

### **Sirdaryo viloyatida 2026-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risi”da PF-98-sonli farmonining 3-bandi hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 660-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 33,-\_34-bandlari asosida 2026-yilda viloyatda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash maqsadida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Sirdaryo viloyatida 2026-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga;

Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko‘chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda qo‘llaniladigan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 2-ilovaga;

ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi 4-ilovaga;

radio, uyali aloqa va peyjer aloqasi uchun ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 5-ilovaga;

viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markaziy (birinchi darajali) ko‘chalar ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (J.Dusbekov)ga:

davlat mulkini ijaraga berishni tashkil etish va ijaraga berish;

ijaraga berilgan davlat mulkini va uni ijaraga berishdan tushadigan mablag‘larni hisobga olish va monitoringini olib borish;

ijaraga beriladigan davlat mulki bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;

ijara obyektlaridan maqsadli foydalanilishini va ularning saqlanishini, shuningdek ijara to‘lovi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishini nazorat qilish;

davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish holatlari aniqlangan hollarda ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar rasmiylashtirish va sudlarga yuborish;

foydalanilmayotgan davlat mulkini ijaraga berilishi to‘g‘risidagi e‘lonlarni va ijaraga berilayotgan davlat mulklari ro‘yxatini davriy nashrlarda hamda viloyat hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasining va Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida joylashtirilishini ta‘minlash topshirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (J.Dusbekov), viloyat Soliq boshqarmasi (S.Tovbayev), tuman va shahar hokimliklari hududlarda ijara munosabatlarini tartibga solish, ijaraga berilayotgan davlat mulki hisobotini to‘g‘ri yuritish va budjetga qo‘shimcha mablag‘larni jalb qilish maqsadida davlat mulkini balansda saqlovchilari tomonidan ijaraga berish samaradorligini oshirish va tashkillashtirishda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ysin.

4. Viloyat boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari balansidagi davlat mulklarini xatlovdan o‘tkazsin va bo‘sh turgan yoki samarasiz foydalanilayotgan davlat mulklarini ijaraga berish bo‘yicha har chorak yakuni bilan hisobot oyidan keyingi oyning 10-sanasigacha Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga mulkning joylashgan joyi, miqdori, tarkibi va boshqa umumiy tavsiflari ko‘rsatilgan ma‘lumotlarini taqdim etib borsin.

5. Davlat kadastrlari palatasi viloyat hududiy boshqarmasi (R.Nishanov) har chorak yakuni bilan keyingi oyning 5-sanasiga qadar viloyatda mavjud davlat mulki obyektlarining ro‘yxatini elektron holatda Davlat aktivlarini boshqarish

agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasiga taqdim etib borsin.

6. Viloyat hududida 2026-yilda davlat mulki bo‘lgan binolar va xonalarda joylashgan budget tashkilotlari uchun ijara to‘lovining “no1” stavkasi belgilab qo‘yilsin.

7. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari - matbuot kotibi M.Mirzayev, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (J.Dusbekov) mazkur qarorni “Yangi Sirdaryo” gazetasida e‘lon qilinishini hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

8. Ushbu qaror rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari F.Kushakov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**AXMEDJANOVA  
POKIZA  
SHAVKATOVNA**

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 30-dekabrda  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
1-ilova

**Sirdaryo viloyatida 2026-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalari**  
(bir yilga umumiy foydalanish maydoning 1 kv.metr uchun)

T/r	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadi	2026-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Guliston shahri uchun	Tuman va shaharlar uchun
	<b>Ishlab chiqarish</b>		
1	Ishlab chiqarish turlari bo'yicha (kimyo, neft, mashinasozlik, hisoblash texnikalari, traktorsozlik, maishiy anjomlar, sanitariya, metall, tamaki, elektronika va santexnika mahsulotlari va jihozlari)	17 400	12 300
2	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	56 300	40 800
3	Elektr energiya ishlab chiqarish	17 600	12 400
	<b>Qurilish sanoati</b>		
4	Qurilish mahsulotlari sanoati (asfalt, bitum, tosh saralash, shlakoblok, penablok, gazoblok, suvoq qorishmalari, gipsokarton, shifer, sement)	17 900	12 700
5	Qurilish mahsulotlari qayta ishlash (tunikafon, sendvich panel ishlab chiqarish va yog'ochni va temirni qayta ishlash)	18 400	13 000
6	Deraza, eshiklar va mebel ishlab chiqarish sanoati (yog'ochdan)	60 200	39 000
7	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	96 700	55 200
	<b>Yengil sanoat</b>		
8	Yengil sanoat turlari bo'yicha (to'qimachilik, tikuvchilik, charm, mo'yna, poyabzal, sellyuloza-qog'oz sanoati)	17 700	12 500
	<b>Oziq-ovqat sanoati</b>		
9	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (yog', go'sht, baliq, ichimlik, un, qandolat mahsulotlari hamda omuxta yem sanoati)	17 400	12 300
10	Chorva (qo'y) mollarini so'yish va sotish (jumladan kushxona)	50 200	36 100

11	Sut mahsulotlari sanoati	34 400	24 900
12	Non va qolipli (bulka) non mahsulotlari ishlab chiqarish	49 700	31 000
<b>Qishloq xo'jaligi</b>			
13	O'simlikshunoslik (o'rmon xo'jaligi va bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	7 000 000	5 000 000
14	Issiqxona xo'jaligi 1 gektar yer maydoni uchun	17 600 100	12 100 100
15	Chorva va parranda yetishtirish (boqish)	8 500	6 200
16	Baliqchilik (shu jumladan sun'iy maydon) 1 gektar uchun	16 000 400	10 700 600
17	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	4 616 600	3 306 500
<b>Transport va aloqa</b>			
18	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	17 000	12 000
19	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	8 800	4 300
20	Avtomobillarni yuvish	55 000	34 600
21	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (benzin, dizel)	59 900	44 600
22	Avtomobillarga yoqilg'i quyish (gaz quyish shohobchalari)	66 100	47 900
23	Elektromobillarni quvvatlash shohobchasi	29 600	21 500
24	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	54 800	39 100
25	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	41 100	30 400
26	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va transport xizmatlari	30 500	22 300
27	Pochta va kuryerlik aloqasi	38 400	27 800
28	Elektr-simli aloqa (WIFI Router)	34 600	24 600
29	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	145 100	104 000
<b>Savdo va umumiy ovqatlanish</b>			
30	Ulgurji savdo	55 400	39 800
31	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	138 900	99 300
32	Chakana savdo	53 800	38 700
33	Sotuvchisiz elektron uskunarlar orqali chakana savdoni tashkil etish	135 600	110 900
34	Umumiy ovqatlanish (Tabiiy va sun'iy suv havzalari hamda daryo bo'ylarida baliq mahsulotlari va taomlari savdosi, fast-food)	55 300	39 800
35	Kitob do'konlari	7 600	5 700
36	Lombardlar	70 800	50 700
<b>Xizmat ko'rsatish</b>			

37	Xizmat ko'rsatish turlari bo'yicha (xo'jalik buyumlarini ijaraga berish, nusxa ko'chirish, ko'chmas mulklar bilan bog'liq xizmatlar, reklama va ko'rgazmalar, geodeziya va gidrometeorologiya)	49 800	35 800
38	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	75 300	54 100
39	Mehmonxona xo'jaligi	55 800	39 900
40	Umumiy yashash joylari (shu jumladan oila, talabalar va o'quvchilar turar joylari)	43 800	30 700
41	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari (veterinariya xizmatlari, kimyoviy tozalash va bo'yash, avtomobil, velosiped, samokatlarni ijaraga berish, paxta va jun tozalash va titish hamda ko'ngilochar qurilmalar joylashtirish)	29 100	20 700
42	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	17 800	12 500
43	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	40 200	29 100
44	Poligrafiya sanoati	43 600	36 100
45	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar	39 100	28 300
46	Suv bo'yida xizmat ko'rsatish joylari (plyaj zonalari, baliq ovlash maskanlari, qayiqda suzish va suv sayohati va suv bo'yida turizm xizmatlarini tashkil etish)*	35 900	25 500
47	Quyosh panellari va suv isitish qurilmalar joylashtirish	8 500	6 200
48	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	42 800	31 000
49	Hammomlar	84 000	60 000
50	Saunalar va basseynlar	169 000	121 100
<b>Turizm xizmatlari</b>			
51	Madaniy meros obyektlarida hunarmandchilik turlari bo'yicha (misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	53 500	41 800
52	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, zargarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va x.k)	42 400	30 800
53	Madaniy meros obyektlarida mehmonxona va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish	100 700	78 500
54	Madaniy meros obyektlarida savdo xizmatlarini ko'rsatish (esdalik buyumlari, sovg'alar, hunarmandchilik mahsulotlari va h.k)	79 300	56 900
55	Madaniy meros obyektlarida umumiy ovqatlanish shohobchalari (restoran, kafe, fast-food va h.k)	91 200	65 200
56	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka)	58 900	42 100
<b>Sog'liqni saqlash</b>			
57	Davolash maskani (statsionar davolash) **	35 500	25 300

58	Davolash maskani (shu jumladan laboratoriya, operatsion blok, stomotologiya, fizioterapiya)	111 400	89 000
59	Tibbiy asbob uskunalari o'rnatish (massajlovchi stullar, MRT, UZI, MSKT, rentgen va boshqa qurilmalari)	141 600	118 600
60	Tibbiyot sanoati (Tibbiyot buyumlari, asbob uskunalari va dori vositalari ishlab chiqarish)	141 400	118 600
61	Fitobar	25 400	18 200
62	Dorixonalar (optika, tibbiyot anjomlari va jihozlari sotish)	62 000	33 300
63	Protez-ortopediya moslamalarini tayyorlash va ta'mirlash	36 500	26 000
64	Ijtimoiy-dorixonalar	27 400	17 900
<b>Jismoniy tarbiya va sport</b>			
65	Sport maydonlari (stadionlar)	18 400	13 000
66	Sport zallari (qo'l jangi, karate, kurash, sambo, erkin kurash va h.k)	18 300	12 900
67	Fitnes va yengil atletika zallari**	140 800	118 800
<b>Ta'lim</b>			
68	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (oliy, o'rta ta'lim) **	36 500	26 000
69	Nodavlat ta'lim tashkilotlari (maktabgacha tarbiya muassasalari) **	35 900	25 500
70	Tayyorlov kurslari (IT kurslari uchun)	60 200	43 600
71	Tayyorlov kurslari (malaka oshirish va o'quv kurslari)	56 000	40 500
72	Oliy ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	36 200	26 100
73	O'rta maxsus ta'lim muassasalarida (jumladan maktablarda) umumiy ovqatlanish	24 500	17 500
74	Madaniyat va san'at	51 500	37 000
75	Ko'rgazmalar	39 800	29 700
76	Madaniy dam olishni tashkil etish (bog'lar, zooparklar, televideniya va radioeshittirishlar redaksiyalari)	36 800	26 200
77	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	58 900	42 100
78	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	22 300	15 700
79	Avtomaktablar	32 700	18 700
80	O'quv amaliyot poligonlari (test tajriba va sinov maydonlari)	17 600	12 400
<b>Moliya-kredit faoliyati</b>			
81	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	50 200	36 100
82	Auditorlik faoliyati	49 700	33 400
83	Buxgalteriya va soliq servis xizmatlari	79 300	56 900
84	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	49 300	35 400
85	Bankomatlar	737 600	528 200
86	Paynetlar	144 000	102 900
87	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari	145 200	103 900

	(kassalar)		
88	Turli xizmat turlari uchun to'lov qabul qilish maskanlari (banklar uchun kassalar)	146 600	104 800
89	Front-ofislar (banklar uchun)	61 300	50 200
90	Bank xizmatlari ofisi	51 500	37 000
91	Sug'urta faoliyati	42 800	35 800
92	Avia kassalar (shu jumladan temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	77 200	55 400
<b>Faoliyatning boshqa turlari</b>			
93	Notarial xizmatlar	51 500	37 100
94	Sud va yuridik xizmat muassasalari hamda advokatlar kollegiyasi	43 200	31 300
95	Jamoat birlashmalari	14 400	10 000
96	Omborxonalar	49 300	35 400
97	Davlat korxonalar va muassasalari	22 300	15 700
98	Xususiy tashkilotlarga ofis	8 000	57 400
99	Arxiv xizmati	21 600	12 700
100	Tahririyat va nashriyotlar	28 600	20 300
101	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	28 900	20 500
102	Laboratoriyalar (Tibbiy xizmatlardan tashqari)	36 200	25 800

**Izoh:** Davlat mulkini ijaraga berishda imtiyozlar va preferensiyalar qo'llanishi qonunchilikda belgilangan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin.

\*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 2-senatbrdagi "Davlatga tegishli suv havzalarini tadbirkorlik subyektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali ijaraga berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 441-son qaroriga asosan qo'shilgan faoliyat turlari.

\*\* Mazkur faoliyat turlari bo'yicha 4 va 5 toifadagi tumanlar hududidagi davlat mulki bo'lgan ijtimoiy soha obyektlarini faqat o'z faoliyat yo'nalishini saqlagan holda ijaraga berishda amaldagi minimal stavkaga nisbatan 50 foiz imtiyoz qo'llaniladi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 30-dekabrdagi  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
2-ilova

**Sanoat zonalari hududlaridagi davlat ko'chmas mulkini 2026-yilda ijaraga berishda  
1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalari**

<b>Taklif etilayotgan narx (QQS bilan birga)</b> <i>(respublika tuman va shaharlari toifalari bo'yicha)</i>			
<b>T/R</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Toifalar</b>	<b>Hududiy zonalar 1 kv.metr uchun qo'llaniladigan ijara to'lovining eng kam stavkalar</b>
1.	Guliston shahri, Sirdaryo tumani, Shirin shahri	II	182 100
2.	Mirzaobod tumani, Oqoltin tumani, Yangiyer shahri	III	149 900
3.	Boyovut tumani, Guliston tumani, Sayxunobod tumani, Xovos tumani	IV	117 800
4.	Sardoba tumani	V	107 100

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 30-dekabrda  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
3-ilova

**Ijara haqining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar**

<b>I. Hududiy zonalar koeffitsiyenti – (Kz)</b>			
<b>Guruhlar raqami</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Zonalar</b>	<b>Hududiy zonalar koeffitsiyenti</b>
1	Guliston shahri	I	3,0
2	Sirdaryo shahri Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	II	2,6
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani (boshqa hududlari)	III	2,3
4	Sardoba tumani Sayxunobod tumani Guliston tumani	IV	2,2
5	Boyovut tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	V	2,0
<b>II. Binoning qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti – (Kk)</b>			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan, binoning bir qismi		1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, boloxona		0,9
2.4	Yarim yer to'la, yer to'la		0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar		0,8
<b>III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kx)</b>			
3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo'lganda		0,8
3.2	Yer maydoni mavjud bo'lmaganda		0,0
<b>IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti – (Ko)</b>			
4.1	Asosiy qatnov yo'llarida joylashganda		0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo'llarida joylashganda		0,5

**Izoh:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 660-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 35-bandiga muvofiq, mol-mulkning boshqa turlari

uchun ijara to'lovi stavkasini hisoblashda, agar ijaraga topshirilayotgan mulkdan amalda foydalanilgan muddat, undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lmasa yoki ushbu muddatda teng bo'lsa, yoki amalda foydalanilgan muddatni aniqlash mumkin bo'lsa - ijara to'lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 30 foizidan, agar ijaraga topshirilayotgan mol-mulkdan amalda foydalanilgan muddat undan samarali foydalanish muddatidan ortiq bo'lsa- ijara to'lovi stavkasi mol-mulk tiklanish qiymatining 20 foizidan kam bo'lishi mumkin emas. Samarali foydalanish muddati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 306-moddasida ko'rsatilgan tasniflashdan kelib chiqqan belgilanadi.

Balansda saqlovchi tashkilotning rahbari va bosh hisobchisi ijaraga berilayotgan davlat mulki to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotning ishonchliligi uchun javobgar hisoblanadi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 30-dekabrdagi  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
4-ilova

### **Ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlarning hisoblash tartibi**

Davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam miqdori quyidagicha hisoblab chiqiladi:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

$T_s$  - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam miqdori;

$E_s$  - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;

$K_z$  - hududiy zonalar koeffitsiyenti;

$K_q$  - Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent;

$K_h$  - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;

$K_o$  - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (asosiy avtotransport yo'llari bo'ylab joylashish, ikkinchi darajali avtotransport yo'llariga chiqishda joylashish va boshqalar).

Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ( $K_q$ ), tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti ( $K_h$ ) va tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti ( $K_o$ )ning yig'indisi 1 birlikdan kam bo'lgan taqdirda, yaxlitlangan holda 1 birlikka teng hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan koeffitsiyentlar quyidagilarni ifodalaydi, jumladan:

- Hududiy zonalar koeffitsiyenti ( $K_z$ ) – viloyat, tuman (shahar) markazlari hamda chekka hududlar, shu jumladan qishloq va ovullar uchun ularning rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan koeffitsiyent;

- Qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ( $K_q$ ) – davlat mulki obyektini yaxlit holatda yoki uning bir qismini (yerto'lasi, yarim yer to'lasi, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi) hamda obyektga birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydoni bo'yicha belgilanadigan koeffitsiyent.

Bunda, ijaraga oluvchi davlat mulki obyektini to'liq ijaraga olganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qurilish turi bo'yicha alohida turgan bino koeffitsiyenti qo'llaniladi;

Ijaraga oluvchi davlat mulki obyektining bir qismini yerto'lasini, yarim yer to'lasini, bino ichidagi xonasi, boloxonasi, tom qismi yoki birlashtirilgan yer maydoni, shu jumladan beton (asfalt) maydonini ijaraga olganda va ushbu maydonlardan balansda saqlovchi bilan birgalikda foydalanilganda qurilish turi bo'yicha koeffitsiyent ijaraga berilgan maydon obyektning joylashgan qismi asosida qo'llaniladi.

- Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh) - ushbu koeffitsiyent davlat mulki obyektini yaxlit holatda (to'liq) ijaraga berilganda (shartnoma muddati davomida balansda saqlovchi obyektidan foydalanish imkoni cheklanganda) qo'llanilmaydi qolgan holatlarda (obyektning bir qismi berilganda) qo'llaniladi.

Ushbu koeffitsiyent qo'llanilmagan hollarda obyekt hududidagi betonlashtirilgan (asfaltlangan) maydonlari ijara maydoni sifatida shartnomaga kiritiladi va belgilangan tartibda to'lov undiriladi.

- Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti (Ko) - ushbu koeffitsiyent obyekt joylashgan manzilining tijoriy faoliyat uchun qulaylik darajasini belgilaydi.

Bunda, ijaraga berilgan obyekt xalqaro va mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llariga tutash hududlarda joylashgan bo'lsa asosiy avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi. Mahalla, qishloq va ovullarning ichki yo'llari (ko'chalari)da joylashgan bo'lsa ikkinchi darajali avtotransport yo'lida joylashgan hisoblanadi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati  
Kengashining  
2025-yil 30-dekabrdagi  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
5-ilova

**Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi uchun ijara haqining eng kam stavkalariga  
qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar**

<b>I Hududiy zonalar koeffitsiyenti – (Kz)</b>			
<b>Guruhlar raqami</b>	<b>Hudud nomi</b>	<b>Zonalar</b>	<b>Hududiy zonalar koeffitsiyenti</b>
1	Guliston shahri Sirdaryo shahri	<b>I</b>	2,5
2	Yangiyer shahri Baxt shahri Shirin shahri	<b>II</b>	2,0
3	Oqoltin tumani Sirdaryo tumani Boyovut tumani Guliston tumani Sayxunobod tumani	<b>III</b>	1,8
4	Sardoba tumani Mirzaobod tumani Xovos tumani	<b>IV</b>	1,5
<b>II Binoning qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyenti – (Kq)</b>			
2.1	Alohida turgan bino		1,5
2.2	Binoga taqab qurilgan, binoning bir qismi		1,4
2.3	Binoning ustki qismi, cherdak, boloxona		0,5
2.4	Yarim yer to‘la, yer to‘la		0,7
2.5	Betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar		0,8
<b>III. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti (Kh)</b>			
3.1	Yer maydonidan foydalanganda va yer maydoni mavjud bo‘lganda		0,5
3.2	Yer maydoni mavjud bo‘lmaganda		0,0
<b>IV. Tijorat maqsadida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti – (Ko)</b>			
4.1	Asosiy qatnov yo‘llarida joylashganda		0,6
4.2	Ikkinchi darajali transport qatnovi yo‘llarida joylashganda		0,5

\* Radio, uyali va peydjer aloqa antenna va boshqa texnik qurilmalar uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi miqdori antenna yoki boshqa texnik qurilmalarni tortgich qoziqlari egallagan umumiy maydon bo'yicha hisoblanadi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Ken-  
gashining  
2025-yil 30-dekabrdagi  
VII-27-235-9-0-K/25 -son qaroriga  
6-ilova

**Sirdaryo viloyat markazi hamda shahar va tumanlar markaziy (birinchi darajali) ko'chalar  
ro'yxati**

<b>T/r</b>	<b>Tuman (shahar) nomi</b>	<b>Ko'cha nomi</b>	<b>Uzunligi, metr</b>
1	Guliston shahar	O'zbekiston shoh ko'chasi	5152
		Guliston shoh ko'chasi	3380
		Xondamir shoh ko'chasi	4647
		I.Karimov shoh ko'chasi	2074
2	Shirin shahar	Buyuk turon ko'chasi	930
		Furqat ko'chasi	580
		Abu Ali Ibn Sino ko'chasi	1000
		Xalqlar do'stligi ko'chasi	1000
3	Yangiyer shahar	A.Temur ko'chasi	7585
		Tinchlik ko'chasi	6372
		Paxtakor ko'chasi	4678
		Al Buxoriy ko'chasi	1490
4	Boyovut tumani	Tinchlik shoh ko'chasi	2460
		Beruniy shoh ko'chasi	1220
5	Guliston tumani	Turkiston ko'chasi	2500
		Ziyokor ko'chasi	2100
		Ahmad Yassaviy ko'chasi	2700
6	Mirzaobod tumani	Mustaqillik ko'chasi	600
		Bahor ko'chasi	500
		O'zbekiston ko'chasi	480
7	Oqoltin tumani	Tinchlik ko'chasi	830
		Xotira ko'chasi	830
8	Sardoba tumani	Do'stlik ko'chasi	1800
9	Sayxunobod tumani	Ravonlik ko'chasi	1100
10	Sirdaryo tumani	Guliston ko'chasi	2 500
		Ishbilarmonlar ko'chasi	350
		O'zbekiston ko'chasi	4 200
11	Xovos tumani	Samarqand ko'chasi	1600
		Toshkent ko'chasi	2150

		Al-Buxoriy ko'chasi	1600
		Xiyobon ko'chasi	450